

**OT SO‘Z TURKUMIDAGI LEKSEMALARDA XUSUSIY
BIRIKUVCHANLIK LUG‘ATINI TUZISHNING LINGVISTIK ASOSLARI**

Mamaraximov Sirojiddin Murtazayevich

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasida katta o‘qituvchisi

e-mail: mamaraximov90@umail.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ot so‘z turkumiga mansub leksemalarning o‘ziga xos birikuvchanlik xususiyatlari va ularning lug‘atlarda aks ettirilishining lingvistik asoslari tadqiq etiladi. Ot leksemalarning boshqa so‘z turkumlari bilan sintaktik va semantik munosabatga kirishish imkoniyatlari, ularning birikuvchanlik darajasi hamda mazmuniy xususiyatlari tahlil qilinadi va o‘zbek tilining leksikografik tizimini takomillashtirish, ot leksemalarning valentlik va birikuvchanlik imkoniyatlarini tizimli ifodalash hamda amaliy lug‘atchilik uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *birikuvchanlik-biriktiruvchanlik, leksik-semantik valentlik, agent (agens), aktant, obyekt valentligi, adresat valentligi, gap tarkibi, ot kesimli gap, majhul nisbat, fe‘l kesim, ega vazifasi, vositali to‘ldiruvchi, leksikografiya.*

Abstract: *This article examines the specific combinatorial properties of lexemes belonging to the noun category and the linguistic foundations for representing these properties in dictionaries. The possibilities of noun lexemes to enter into syntactic and semantic relations with other parts of speech, as well as their degree of combinability and semantic features, are analyzed. The findings contribute to improving the lexicographic system of the Uzbek language, systematically representing the valency and combinatorial potential of noun lexemes, and establishing a scientific basis for practical lexicography.*

Keywords: *combinability, collocability, lexical-semantic valency, agent*

(agens), actant, object valency, addressee valency, sentence structure, copular sentence with a nominal predicate, passive voice, verbal predicate, subject function, indirect object.

Soʻzlarning hokim-birikuvchi munosabatda bogʻlanishining tuzilishi, uni tashkil etuvchi aʼzolarning oʻzaro munosabatini oʻrganish jarayonida birikishning ichki qonuniyati ochiladi hamda yoritiladi. Masalan, *taxta* soʻzini misol sifatida oladigan boʻlsak, [f. – taxta, lavha; varaq; yogʻoch]. Xodadan uzunasiga tilib olingan yassi yogʻoch boʻlagi. *Taxtani randalamoq. Birinchi xonaga kiraverishda uzun enli taxta qoʻyilibdi.* (S.Siyoyev, “Yorugʻlik”). Ushbu gapdagi *taxta* leksemasi *randalamoq* leksemasiga ichki imkoniyatdan kelib chiqib tushum kelishigi formasi orqali bogʻlanib kelgan.

Birikuvchanlik va biriktiruvchi bogʻlanish aʼzoldan birining faolligi asosida emas, balki har ikki aʼzoning ham bir-biriga, avvalo, maʼnoviy, qolaversa, shakliy, joylashuv jihatdan moslashishi asosida yuz berishini bir necha misollar asosida isbotlash mumkin. Masalan, *chiroyli qiz, maktabdan keldi* kabi. Darvoqe, birikayotgan leksemaning birikish imkoniyati voqelanishga, biriktiruvchi aʼzoning biriktirish talabi esa qondirilishga intilayotganligini koʻrsatadi. Birikuvchanlik va biriktiruvchidagi aʼzolarning goh bittasining (*kitobga qaramaoq*), goh ikkinchisining ham (*kitobning varagʻi*) grammatik shakllanishi asosida sintaktik aloqaning ikki xil – bir tomonlama aloqa, ikki tomonlama aloqa turini farqlash maʼqul emas. Unda bitishuvli (*aqlli bola*) birikmalarni hech qanday aloqasiz birikma deyishga toʻgʻri kelgan boʻlar edi. Yuqoridagi aloqaning ikki koʻrinishi bogʻlovchi vositaga qarab belgilangan, xolos. Birikuvchanlik va biriktiruvchida aloqa har doim ham ikki tomonlama boʻladi. Uning aʼzolarining ikki yoqlama birikish imkoniyati va biriktirish talabi aloqadorligi bevosita aʼzolarning birikish-biriktirish qobiliyatiga asoslanadi. Masalan, *taxtiravon, taqachilik, nomzod, oshpichoq, polovxoʻrlik* kabi leksemalar misolida koʻrish mumkin.

TAXTIRAVON. [f. ~ yuruvchi taxt]. Sharq mamlakatlari va Janubiy Amerikada: ma'lum bir safar chog'ida oliy martabali shaxslar o'tqazilib, sopi yelkaga qo'yib ko'tariladigan yoki fil ustiga o'rnatiladigan, usti berk hashamdor zambar. *Bizlar Shohrux janoblarini suyab, xachirdan tushirdik va avaylab, taxtiravonga soldik. To'rt mulozim ul taxtiravonni yelkalab, lashkargohdagi bir chodirga eltib, o'sha yerga janoblarini yotqizdilar.* M. Osim, "Zulmat ichra nur".

Ushbu gapdagi taxtiravonni yelkalab birikishida biriktiruvchi va birikuvchi munosabatda tushum kelishigi orqali shakllantirgan [1, 18-19].

TAQACHILIK. Taqa yasash va taqa qoqish ishi, kasbi. *Taqachilik arteli. Taqachilikni o'rganmoq. Taqachilik qilmoq. Bo'taboy ham ikki kunda taqachilikning sirini o'rganib oldi.* S. Ahmad, "Hukm" [1, 34].

Mazkur gapdagi taqachilikning sirini birikmasida birikayotgan leksemaning birikish imkoniyati voqelanishga, biriktiruvchi a'zoning biriktirish talabi bilan ro'yobga chiqmoqda.

NOMZOD. [f. – kuyov, kelin; unashtirilgan; nomi ko'rsatilgan; kandidat]. Davlat yoki jamoatchilik organida saylash, biron-bir lavozimga tayinlash, biron-bir tashkilotga qabul qilish uchun belgilangan, ko'rsatilgan shaxs; kandidat. *Nomzod ko'rsatmoq. Nomzodlarni tasdiqlamoq. Nomzodlar ro'yxati. Ishning yengili bo'lmaydi, qizim. Maktab mudirligiga sizdan boshqa munosib nomzodga to'xtalmadik, rad etmang.* J. Sharipov, "Xorazm".

Nomzod leksemasi orqali yuzaga kelgan bog'lanishda esa birikuvchanlik va biriktiruvchi bog'lanish a'zolaridan birining, ya'ni *to'xtalmadik* fe'lining faolligi asosida yuzaga kelgan, bunda har ikki a'zoning ham bir-biriga, avvalo, ma'noviy, qolaversa, shakliy joylashuv jihatdan moslashishi "*nomzodga to'xtalmadik*" birikuvida yuz berishini kuzatiladi [2, 55].

OSHPICHQOQ. Serbar, uchi to'mtoq maxsus katta pichoq. *Iskandar, yomon hid kelganday, burnini jiyirib, oshxona tarafga qaradi, ayvon ustuniga suyab qo'yilgan kunda va katta oshpichoqda ko'rdi.* S.Nurov, "Maysalarni ayoz urmaydi" [2, 174].

“*Oshpichoqda ko‘rdi*” birikmasida birikayotgan leksemaning birikish imkoniyati voqelanishga, biriktiruvchi a‘zoning biriktirish talabi esa uning ehtiyojini ko‘rsatadi. Birikuvchanlik va biriktiruvchidagi a‘zolarning bittasini (*oshpichoqda*), grammatik shakllanishi asosida sintaktik aloqaning turini farqlash ma’qul emas.

PALOVXO‘RLIK. To‘yib palov yeyish, palovga to‘yish. *Mahallada har kun to‘y, har kun palovxo‘rlik. Rais majnuntol tagidagi palovxo‘rlikdan keyin ajoyib bir hodisaga duch kelibdi.* M.Muhamedov, “Yurak so‘zlari” [2, 174].

“*Palovxo‘rlikdan keyin*” kabi birikmalarda birikuvchanlik (*palovxo‘rlikdan*) va biriktiruvchida (*keyin*) aloqa har doim ham ikki tomonlama bo‘ladi, ya’ni uning a‘zolari ikki yoqlama birikish imkoniyati (*palovxo‘rlikdan – kelishik qo‘shimchasi orqali keyin – ohang orqali*) va biriktirish talabi aloqadorligi bevosita a‘zolarning birikish-biriktirish qobiliyatiga asoslangan bo‘ladi.

Birikuvchanlik va biriktiruvchanlik a‘zolari orasidagi bog‘lanish har bir leksemada yaxlit holda mavjud bo‘lgan ma’noviy, shakliy, joylashuv omillarining o‘zaro mosligiga tayanadi. Masalan, *taxtiravonni yelkalab* birikmasidagi *taxtiravonni* so‘zshaklida biriktiruvchi leksemaga birikishini ta’minlaydigan shakliy, ma’noviy, joylashuv omillari bo‘lganligi kabi *yelkalab* so‘zshaklining ham birikuvchi a‘zoga bog‘lanishini ta’minlaydigan omillari mavjud. *Taqachilikning sirini* birikmasida birikuvchi leksema (*taqachilikning*)ning biriktiruvchi leksema (*sirini*) bilan birikishini uning shakli *-ning*, ma’nosi va qisman joylashuvi (oldin kelishi) ko‘rsatsa, biriktiruvchi so‘zning birikuvchi so‘z bilan bog‘lanishini ma’nosi, shakli va qisman joylashishi (*keyin kelishi*) ko‘rsatadi.

Leksemalarning joylashuvida uch omil yaxlit bo‘lib, ma’lum birikish jarayonida birortasi ustunlik qilsa, boshqalari kuchsizlanadi. Keltirilgan *taqachilikning sirini* birikmasidagi birikuvchi so‘z (*taqachilikning*)da shakliy omil *-ning* birikuvchilikni ko‘rsatuvchi yetakchi omil bo‘lsa, biriktiruvchi leksema (*sirini*)da ma’noviy omil ustunlik qilgan.

Ma’no jihatdan birikkan leksemalarning bog‘lanishi uchun muhim sanalgan lug‘aviy ma’nosi, qaysi turkumga xosligi tushuniladi. Lug‘aviy ma’no ayon bo‘lib,

soʻzning grammatik maʼnoviy xususiyatiga biroz sharh berish lozim. Soʻzlarning muayyan turkumga xosligi keng koʻlamli tushuncha, mustaqil soʻz turkumlari doirasida narsa-predmet, belgi, miqdor, harakat, holat, tasviriylilik, ishoraviylilik kabi turkumlik maʼnolarini qamrab oladi. Bu maʼnolar soʻz turkumi (masalan, ot), uning ichki boʻlinishlari (masalan, modda-maʼdan oti, oʻrin-joy oti kabi) bilan bogʻliq. Shuning uchun taqachilikning sirini birikmasida (taqachilikning) soʻzining ot turkumiga mansubligi, shaxs oti ekanligi, (sirini) soʻzining maʼlum bir harakatning mahsuli boʻlmish mavhum predmetni ifodalashi kabi maʼnoviy omilni tashkil etadi.

Oʻzbek tilshunosligida leksemalarni bogʻlash ushuni maxsus grammatik shakllardan tashqari boshqa qoʻshimchalar ham nisbiy bogʻlovchilik xususiyatiga ega. Buni koʻplikni ifodalovchi qoʻshimcha misolida ham koʻrish mumkin. Masalan, Kuz oylari boshlanishida bu yerda hovli atrofida yetinqiragan mevalar, soʻridagi husayni uzumlardan asal tomib turadi. (*Tuygʻun, “Doʻstlik sevinchlari”.*)

Ilmiy asarlarga yuzlanadigan boʻlsak, otlarda ziddiyat holida boʻlgan birlik va koʻplik maʼnosi va bu maʼnoni ifodalovchi shakllar sistemasi grammatik son kategoriyasini tashkil etishi asoslab berilgan. Biroq mantiqiy va grammatik sonni aralashtirmaslik kerak. Masalan, jamlovchi ot (xalq, qoʻshin, poda, suruv) mantiqan predmet jamini bildiradi, lekin grammatik jihatdan birlikda deb qaraladi. Ammo son kategoriyasining *-lar* qoʻshimchasi bilan yasaluvchi shakli va shunga zid boʻlgan nol koʻrsatkichli shakli ham mavjud. Bulardan *-lar* qoʻshimchasi otning koʻplik shaklini yasaydi, birlik shakl esa nol koʻrsatkichli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Жилд 4. – Т. : “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Жилд 3. – Т. : “Oʻzbekiston nashriyoti”, 2020.
3. Қўчқортөев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977.
4. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.

5. Brinkmann H. Die deutschen Sprache. Gestalt und Leistung. – Dusseldorf, 1962.
6. Murtazayevich, M. S. (2026, June). OT KESIM VA AGENS AKTANTINING LEKSIK-SEMANTIK VALENTLIKDAGI O'RNII. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 95-98).
7. Murtazayevich, M. S. (2026, June). BIRIKUVCHANLIK–BIRIKTIRUVCHANLIK HODISALARIGA DOIR MULOHAZALAR. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 67-69).